

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVOAT JISMONIY TARBIYA INSTITUTI

Qo'l yozma xuquqida

UDK

YO'LDASHEV AKROM MUMIN O'G'LI

13-15 yoshli brassist suzuvshilarda umumiy chidamlilik
qobiliyatini rivojlantirish.

5A610501 «Sport faoliyati »

MAGISTR

akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya

Ilmiy rahbar

_____ p.f.n. Sodiqov A.G

Toshkent-2013

MUNDARIJA

Kirish...	3
I.BOB. ADABIYOTLAR SHARHI ...	5
YOSH SPORTCHILARDA UMUMIY CHIDAMLILIKNI	
RIVOJLANTIRISH.....	5
1.1 Umumiy chidamlilik va uni rivojlantirish uslublari.....	6
1.2. Chidamlilik turlari.....	20
1.3.Suzuvchilarda chidamlilikni tarbiyalash uchun qo'llaniladigan vosita va uslublari.....	30
I bob boyicha xulosa.....	43
II.BOB. TADQIQOTLAR VAZIFALARI, USULIYATLARI, ULARNI	
TASHKIL QILISH... ..	44
2.1.Tadqiqot vazifalari	44
2.2.Tadqiqot usuliyatlar... ..	44
2.3. Tadqiqotni tashkil qilish... ..	46
III. BOB. TADQIQOTLAR NATIJALARI	48
3.1. Suzuvchilarni jismoniy rivojlanganlikgi.....	48
3.2. Suzuvchilarni jismoniy tayorgarligi dinamikasi.....	51
III bob boyicha xulosa.....	65
XULOSA... ..	57
Adabiyotlar ro'yxati.....	76

KIRISH

Bugungi jamiyat hayotida jismoniy tarbiyash va sport insonni jismonan kamol toptirishda hos ishlab chiqarish, hos sog'lomlantirish bo'lsin, hos tarbiyaviy, xos sog'lom dam olishni tashkil qilish va hokazo sohalarda bo'lsin juda ko'p ijtimoiy vazifalarni bajaradi (1,2).

“Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida” gi qonunda barcha aholining solig'ini mustahkamlash, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'illanishga sharoitlar yaratib berishni ko'zda tutadi.

Hozirgi zamonda sportdagi natijalar darajasining yuqoriligi, trenirovka jarayonining natijasizligining o'sishi, kuchaygan raqobat – bularning barchasi sport tayyorgarligi texnologiyalaridagi o'zgarishlarni jismoniy tarbiya va sport trenirovkasining sog'liqni shakllantiruvchi hamda sog'liqni asrash tamoyillaridan foydalanishga asoslangan yo'nalishda oldindan belgilab berish imkonini beradi.

Jumladan 2002 yilda chiqarilgan «Bolalar sportini rivojlantirish to'g'risida»gi Farmonlarida yurtimizda yosh avlodni yetuk barkamol qilib voyaga yetkazish va kelajakda sog'lom avlodni bo'lib tarbiyalashda bu Farmonlarni o'rni kattadir.

“Bolalarni jismoniy va ma'naviy tarbiyalashning zamonaviy shakli va uslublarini, jinsi, yoshiga qarab bolalarga sport ko'nikmalarini singdirish, sport sohasida iqtidorli bolalarni ixtisoslashgan sport maktablari va markazlaridagi mashg'ulotlarni tanlab olishning ilmiy asoslangan tizimlarini ishlab chiqishni tashkil etish hamda ularni tadbiq qilishga ko'maklashish” lozimligi alohida ta'kidlanadi. Suzish sport turini yanada rivojlantirishda albatta bu Farmon va qarorlar murabbiy ustozlar oldiga alohida vazifalar yuklaydi (3,4).

Suzish sportida suzuvchi uchun zich zarur bo'lgan jismoniy sifatlardan biri bo'lgan chidamlilik juda katta ahamiyat kasb etadi. Yuqori natijalarga erishishda suzuvchilarda chidamlilik qobiliyatlarini namoyon etilishi, shu qobiliyatning samaradorligini oshirishda juda katta o'rin egallaydi.

Har xil sport turlari bo'yicha o'tkaziladigan o'quv-trenirovka jarayonini shakllantirish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilg'or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish hamda amaliy sinovdan o'tkazish.

Buning uchun amaliyotchi murabbiylarda chidamlilik to'g'risida kompleks ko'rsatkichlar bo'yicha aniq ma'lumotlar bo'lishi shart va bunga mos pedagogik nazoratni o'rgatish maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Bizning ishimizda biz suzuvchilarni umumiy chidamliligini trenirovka mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etilgan jarayoninigina ko'zatamiz.

Ishdan maqsad - brassist suzuvchilarda umumiy chidamliligini rivojlantirishda ixtisoslikka yo'naltirilgan vositalar qo'llashni tekshirib qo'yish va uni ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

1. 13-15 yoshli brassist suzuvchilarda umumiy chidamlilikni dastlabki darajasini aniqlash.
2. Brassist suzuvchilarda umumiy chidamlilikni rivojlantirish uchun kompleks mashqlar ishlab chiqish va asoslash.
3. Brassist suzuvchilarning chidamlilik jismoniy sifatini rivojlantirish uslubiyati samaradorligini pedagogik tajriba asosida asoslash.

Tadqiqot predmeti – suzuvchilarning chidamliligini rivojlantirish.

Tadqiqot ob'ekti – 13-15 yoshli brassist suzuvchilar

Yangilik – tadqiqot materiallari 13-15 yoshli suzuvchilarda chidamliligi rivojlantirishni va takomillashtirishni imkonini beradi..

Amaliy tavsiyalar – test natijalari shaxsiy kuzatishlar chidamlilikni rivojlantirishga yondoshish bo'yicha ob'ektiv tavsiyalar qilish imkonini berdi.

I. BOB. ADABIYOTLAR SHARHI

YOSH SPORTCHILARDA UMUMIY CHIDAMLILIKNI RIVOJLANTIRISH.

1.1. Umumiy chidamlilik va uni rivojlantirish uslublari.

Tarixan mavjud bo'lgan jismoniy tizimlariga insonning jismoniy (harakat) sifatlarini madaniyatlay olishiga qarab baho berildi. Insonning organizmida turli darajada shakllangan kuch, tezkorlik, chidamlilik, chakkonlik, tana bo'g'inlari harakatchanligi va muskullar egiluvchanligini jismoniy sifatlar deb atash qabul qilingan.

Sportchining umumiy chidamliligi katta mushakda ish shiddatini pasaytirmasdan, o'rtacha zo'r berib uzoq vaqt ish bajara olish qobiliyatidan iborat. Umumiy chidamlilik turli xil faoliyatlarda bardosh berishning o'ziga xos bo'lmagan asosini tashkil qiluvchi organizmning funksional xususiyatlarini yig'indisidan iborat.

Sportchining maxsus bardoshining o'ziga xos yuklamalari, ayniqsa tanlangan sport turida natijaga erishish uchun organizm funksional imkoniyatlarning maksimal jalb etish sharoitida charchoqqa chidab berish qobiliyatida charchash darajasi bardoshli ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Charchash nerv sistemasi faoliyatiga nomuvofiqlik, noaniqlik kiritadi, jarayinning aktivligini pasaytiradi va x.k. Biroq charchashga qarshi turish uchun sportchi nerv sistemasini mashq bilan mustahkamlashi lozim. U charchagan holatda ham ishni davom ettirish – aerob imkoniyatlarning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Chidamlilikni tarbiyalashda omillardan biri psixik omillar hisoblanadi (qat'iylik, maqsad sari intilish, o'zini tuta bilish, jasorat, matonat, o'zini boshqara bilish), ishni energiya bilan ta'minlovchi sistemalarni mashq qildirishga alohida e'tibor berish, organizmni funktsional turg'unligining va tejamkorligining, harakat uyg'unligiga mukammalligiga va musobaqa jarayonida kuchni to'g'ri taqsimlanishiga erishish (5,6,7, 45).

Trenirovkada umumiy chidamlilikni rivojlantirish uchun qo'llanadigan usullar va uslublari, shuningdek bir guruh trenerlar tomonidan o'tkazilgan so'rovnomalar hamda uning natijalarini ilmiy – manbalardan o'rganib chiqiladi.

Inson organizmida energetik zahiralar mavjudligi; organizmning turli tizimlari funksional imkoniyatlari darajasi (yurak - qon tomir, markaziy asab tizimi, asab-mushak va boshq.)

Ushbu tizimlarning faollashuv tezligi va muvofiqlashtirilganligi darajasi; fiziologik va ruhiy funksiyalarning organism ichki muhitining noqulay sharoitlariga turg'unligi (kislorod yetishmasligi va boshq.); organizmning energetik va funksional salohiyatini tejab ishlatish; tayanch – harakat apparatining tayyorlanganligi; kontakt mahorati texnikasining takomillashganligi; shaxsiy-ruxiy xususiyatlar (ishga qiziqish, tirishqoqlik, chidamlilik, qat'iylik va h.k.). inson chidamliligiga ta'sir ko'rsatadigan boshqa omillar qatorida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: yosh, jins, insonning morfologik xususiyatlari va faoliyat sharoiti.

Mazkur omillar harakat faoliyatining ko'p turlarida ahamiyatga ega, lekin ulardan bar birining namoyon bo'lish darajasi va ularning nisbati ma'lum faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turlicha bo'ladi.

Chidamlili rivojlantirishning asosiy vasifalari: tayanch – harakat apparatlarining ko'pchilik yoki barcha asosiy bo'g'inlarini; harakatli belgilar quyidagicha jismoniy mashqlar: mushak ishini asosan aerob ta'minoti; ishning juda katta yig'indi davomiyligi (bir nechadan o'nlab minutilargacha); ishning o'rtacha, katta va o'zgaruvchan hajmi.

Umumiy chidamlilikning rivojlantirish usullari: tabiiy davriy strukturali alohida mashqlarda umumiy aerob chidamliliklarni tarbiya qilish usuli. O'rtacha va o'zgaruvchan quvvatli yuklamali mashqlarni qo'shimcha bajarish usuli (yuklama davomiyligi bir nechadan o'nlab minutgacha).

Siklik mashqlarni bajarishda yuklamaning to'la tavsifini quidagi komponentda ko'rishimiz mumkin:

- 1) mashqni absolyut intensivligi (harakatlanish tezligi);
- 2) mashqni davomiyligi (uzunligi);
- 3) dam olish intervalining katta kichikligi;
- 4) dam olishning xarakteri (aktiv yoki passiv);
- 5) mashqni takrorlashlar (qaytarishlar) soni;

Harakatlanishning tezligini pastligida energiya sarflash katta emas.

Sportchini kislorodga talabining kulami uni aerob imkoniyatlaridan oz. Bunda kislorodga bo'lgan joriy talab, agarda, ishni boshlanishida nafas jarayoni yetarli darajada yo'lga qoyilib ulgurmagan payitdagi kislorodga muxtojlikni ko'p emasligini hisobga olmasak, sarflanayotganini va ish xaqiqiy turgun holatdagi sharoitda bajariladi.

Mashqni davomiyligi masofani bo'laklarining uzunligi va masofa bo'ylab harakatlanish tezligi bilan aniqlanadi. Davomiyligini o'zgartirish ikki xil axamiyat kasb etadi. Birinchidan, faoliyatni bajarish uchun energiya qaysi manba hisobidan bo'lishligiga qarab ishning davomiyligi belgilanadi.

Agarda ishning davomiyligi 3-5 min. ga yetmasa nafas jarayoni kerak bo'lgan darajada kuchayib ulgurmaydi, energiya bilan ta'minlashni anaerob reaksiya o'z bo'yniga oladi.

Bu shunda yuz beradiki ish nisbatan organizmni holati tinch, ko'zg'alish jarayoni xam kuchaymagan xolda bo'lsa yoki ishgacha boshqa faoliyat bajarilgan bo'lib nafas jarayoni yetarli darajada yuqori holatga ko'tarilgan bo'lsa kislorodga muxtojlik sodir bo'lishi uchun vaqt cho'zilishi mumkin.

Mashqni davom etirilishi me'yori qancha kisqartirilsa nafas jarayonining roli shuncha pasayadi va avvaliga glikolitik undan keyin esa kreotichfosfo kinez reaksiyalarini axamiyati ortib boradi.

Dam olish intervalining katta-kichikligi organizmni nagruzkaga javob reaksiyalari ko'lamini va uni xarakterli xususiyatlarini aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

Takrorlashlarda organizmga bo'ladigan ta'sir reaksiyasi har bir nagruzkadan so'ng bir tomondan oldin bajarilgan ishga va boshqa tomondan urinishlar orasidagi dam olishning davomiyliligiga - katta kichikligiga bog'liq.

Dam olish xarakteri (aktiv va passiv) xususan pauzalarni boshqa, qo'shimcha faoliyat turlari (engil-trussoy yugurish-asosiy masofa oraligidir va x.k.) bilan to'ldirish organizmga asosiy ish turi va qo'shimcha qilinganini intensivligiga qarab organizmga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Kritikka yaqin tezliklar bilan ishlashda past intensivlikdagi qo'shimcha ish nafas jarayonlarini nisbatan yuqori darajada ushlashga imkoniyat beradi va shunga ko'ra tinch holatdan ish holatiga, ish holatidan tinch holatga utishdagi keskin o'zgarishlarning oldi olinadi. O'zgaruvchan metodining asosiy xarakterli tomonlaridan biri ham asosan shundan iboratdir.

Mashqni takrorlashlar (qaytarishlar) soni organizm ga nagruzkani ta'siri kulamining yig'indisini belgilaydi. Aerob ish sharoitida takrorlashlar sonini oshirish yurak-tomir va nafas tizimi organlarini uzoq vaqt davomida yuqori darajada faoliyat ko'rsatishga majbur qiladi.

Anaerob sharoitda esa qaytarishlar sonini oshirish ertali - kechmi kislorodsiz mexanizmlarni tugatilishiga olib keladi. Unda ish bajarish butunlay to'xtaydi yoki uni intensivligi keskin pasayadi.

Chidamlilik namoyon qilishda nafas muhim ahamiyatga egaligi ma'lum bo'ladi. Shunga ko'ra tinch, bir xil maromdagi ishlarda asosan burun orqali chuqur nafas olish bilan mashq, ish bajarish to'g'riligi amaliyotda isbotlangan.

Ma'lumki nafas, ko'krak, korin, (bryushnoy press) va aralash muskullar - diofragma aralashuvi orqali olinadi. Kuchli zurikish bilan bajariladigan faoliyatda maksimal darajada o'pka ventilyatsiyasini yo'lga qo'yish uchun o'giz orqali chukur nafas tavsiya qilinadi.

Asosiy e'tibor nafas chiqarishga qaratilishi, chunki o'pkadagi kislorodi kam bo'lgan havo yangi havo bilan aralashib ketmasligi keskin va chuqur nafas chiqarish tavsiya qilinadi.

Suzuvchining sport natijasi asosan mashg'ulotning asosiy chidamliligini darajasi bilan belgilaydi. Sof suzishning tezligi harakat tempi bilan bo'g'liq bo'lsa ham ketkizilayotgan urinishlar natijasiga qaraganda yetali darajada samaradorlikka ega bo'lmaydi.

Shuning uchun chidamlilikning har xil shakllari mavjud, ular o'zlarining belgilariga ko'ra guruhlanadi. Umumiy chidamlilik aerob xususiyatdagi ishga bo'lgan chidamlilik darajasi orqali, masofali va o'zgaruvshan uslublarning tegishli rejimlarini qo'llash yordamida oshirish mumkin.

Oraliqli asosiy uslub shu narsani tashkil qiladiki, nisbatan yuklamali ish bajarilgandan so'ng dam olish oraliqlari vaqtida yurak urish hajmi eng katta ko'rsatkichlarga etadi.

Suzuvchilarning aerob imkoniyatlarini oshirish uchun muvaffaqiyatli qo'llaniladigan trenirovka usullaridan biri – bu masofali usuldir.

Aerob xususiyatdagi ishda o'zgaruvchan tezlik bilan ishlash keng qo'llaniladi. Etakchi olimlar (12,14) hisoblashicha, umumiy chidamlilikni oshirishning asosiy sharti – bu past va katta shiddatdagi ishga muvofiq keladigan rejimda trenirovka yuklamalarini uzoq vaqt bajarishdir.

Trenirovka yuklamasini hajmi katta bo'lishi kerak, chunki umumiy chidamlilikning asosiy tarkibi uzoq vaqt bajarishdir. Trenirovka yuklamasini hajmi katta bo'lishi kerak, chunki umumiy chidamlilikning asosiy tarkibi uzoq vaqt ko'rsatishni taqozo etadi.

Buning manosi shundaki, umumiy chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulot qilishda shiddat qisqa muddatga chegaradan chiqish zarur, biroq har bir mashg'ulot seriyasi yoki mashg'ulot katta kislorod qarzini chiqarmasligi lozim.

Ushbu asosiy tamoyillariga muvofiq umumiy chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotda ravon va o'zgaruvshan uslublar qo'llanishi mumkin.

Umumiy chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan trenirovkada ravon va o'zgaruvshan uslublar qo'llanishi tavsiya etadi.

Ravon mashg'ulot uslubi 1500 m va undan katta masofalarga tomir urishi 140 dan 150 gasha bo'lganda uzoq davom etadigan uzluksiz suzishni nazarda tutadi.

Sport turiga qarab hamda chidamlilikni tarbiyalash usuliyatga qarab ishni energiya bilan ta'minlanishi ham har xil bo'ladi.

Masalan, o'zgaruvchan suzish bir me'yorga suzishga nisbatan ko'proq kislorod talab qiladi. Shuning uchun yuqori malakali suzuvchilar masofani suzib o'tishlarida kuchlari teng taqsimlangan holda masofani har bo'lagini bir me'yorda tezlikda suzib o'tishlari katta samara beradi.

Birinchi mashg'ulotlardan oq umumiy chidamlilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratish lozim. Bunda bir maromli uzoq davom etadigan sekin suzishdan foydalanish tavsiya etiladi.

Biror bir faoliyatda charchoqqa qarshilik ko'rsatish qobiliyati chidamlilik deb ataladi. Umumiy chidamlilik – insonning odatiy bo'lmagan faoliyatni uzoq vaqt va muvaffaqiyatli bajara olish qobiliyati.

Umumiy chidamlilikning namoyon bo'lishi asosida inson organizmining funksional xususiyatlari yotadi. Ular har xil turdagi harakat faoliyatiga nisbatan chidamlilik namoyon bo'lishining maxsus bo'lmagan asosini tashkil etadi (7,8,10).

Bu, birinchi navbatda, vegetativ funksiyalar, jumladan energiyaning aerob manbasi unumdorligidir.

Masalan, insonning nafas olish imkoniyatlarida o'ziga xoslik u qadar sezilmaydi. U harakatning tashqi shakliga u qadar bog'liq emas.

Shuning uchun, agar kimdir yugurish mashg'ulotlari evaziga o'zining aerob imkoniyatlari darajasini ancha yaxshilab olsa, bu boshqa harakatlarning (yurish, suzish va x.k.) bajarilish unumdorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Organizmning vegetativ tizimlari ishini takomillashtirishga asoslangan mashq bilan chiniqqanlikning maxsus bo'lmagan, umumlashtirilgan darajasi chidamlilikning bitta faoliyat turidan ikkinchisiga keng qamrovda o'tish uchun qulay sharoit yaratadi.

Shuning uchun ushbu chidamlilik turini “umumiy” sifatida belgilashga asos bo'ladi. Mushak ishi davomiyligi ortishi bilan chidamlilikning ko'chishi oshib boradi (8,9,11,48).

Umumiy chidamlilikning ijobiy ko'chish samarasi sport amaliyotida va kasb amaliy jismoniy tarbiyada keng qo'llaniladi. Chidamlilikni tarbiyalashda energiya bilan ta'minlash masalalariga alohida e'tibor berish lozim.

Bunda aerob faoliyatdagi singari anaerob faoliyatda ham maksimal kislorod qabul qiladigan va shu paylda uzoq vaqt ishlash qobiliyatini rivojlantirish, nafas olish jarayonida maksimal ko'rsatkichiga etishishni tezlashtirish, anaerob almashishni takomillashtirish zarur.

Mashq qilish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, maksimal kislorod qabul qilish ko'rsatkichi shunchalik katta bo'ladi. Har qanday sport turida ham bayon etilgan omillarni birinchi (yig'indisi) bilan belgilanadi.

Umumiy chidamlilikni rivojlantirish uchun o'z tuzilishiga ko'ra musobaqa mashqlaridan yoki kasbga oid harakatlardan ancha yiroq bo'lgan, lekin yurak – tomir hamda nafas olish tizimlari uchun yuqori samarali hisoblangan mashqlar tez –tez qo'llaniladi.

Muallifning ta'kidlashicha, aerob xususiyatdagi ishga bo'lgan chidamlilik darajasini oraliqli va o'zgaruvchan uslublarning tegishli rejimlarini qo'llash yordamida oshirish mumkin.

Oraliqli asosiy uslub shu narsani tashkil qiladiki, nisbatan yuklamali ish bajarilgandan so'ng dam olish oraliqlari vaqtida yurak urish hajmi eng katta ko'rsatkichlarga etadi.

Chidamlilikning namoyon bo'lishini oldindan belgilab beruvchi omillar quyidagilar: mushaklarning tuzilishi; ichki mushak va mushaklararo koordinasiya; yurak- qon tomir, nafas olish va asab tizimlari ishining unumdorligi; organizmdagi energiya manbalarining zahirasi; boshqa jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi; harakat faoliyatining texnik va taktik tejamkorligi.

Chidamlilikning namoyon bo'lishida shunday o'xshash bog'liqlik boshqa harakat sifatlarning rivojlanish darajasida ham kuzatiladi. Bu shundan dalolatki,

faqat boshqa jismoniy sifatlar optimal darajada rivojlangan bo'lsagina, chidamlilikning yuqori darajada namoyon bo'lishiga erishish mumkin.

Musobaqa faoliyatida chidamlilikning namoyon bo'lish darajasi sport kurashining optimal taktikasiga ham bog'liq bo'ladi. Aerob xususiyatdagi ishda o'zgaruvchan tezlik bilan ishlash keng qo'llaniladi.

Bunda nisbatan yuqori va nisbatan past tezlik bilan suzib o'tiladigan bo'laklarni o'zgartirib turish, bo'laklar shiddatini tomir urishi daqiqada 160-170 zarbagacha bo'lganda oshirishni hamda oxirida kam shiddatli bo'lakda yurak qon tomiri urishi daqiqada 140-150 zarba bo'lganda kamaytirishni nazarda tutadi.

Umumiy chidamlilikni rivojlantirish usuliyati. Umumiy chidamlilikni rivojlantirish jarayonida uning namoyon bo'lishini cheklovchi omillarga nisbatan mashg'ulot ta'sirini ta'minlash zarur. Bu quyidagi vazifalarni ketma – ket hal qilishni taqozo etadi:

- aerob energiya ta'minoti funksional tizimlari shiddatini rivojlantirish. Kislorodning maksimal iste'mol qilinishi umumlashtirilgan ko'rsatkich hisoblanadi;

- energiya ta'minotining aerob manbai sig'imini rivojlantirish. Insonning ma'lum bir ishni ushbu ish uchun maksimal kislorod iste'mol qilish darajasida imkon qadar uzoqroq bajarish qobiliyati bilan tavsiflanadi;

- aerob energiya ta'minotining funksional tizimlari harakatchanligini takomillashtirish;

- funksional va texnik tejamkorlikni yaxshilash. Standart ish birligi uchun energiya sarflanishining kamayishi bilan tavsiflanadi;

- organizmning bufer tizimlari quvvati va sig'imini hamda uni ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini oshirish. Insonning organizm ichki muhitidagi o'zgarishlarni ko'tarish qobiliyati bilan tavsiflanadi (tananing yoshga xos harorati, sut kislotasining to'planishi, tananing alohida bo'g'inlaridagi og'irliklar va x.k.)

Ko'rsatib o'tilgan vazifalar qat'iy tartiblashtirilgan va musobaqa mashqlari uslublari yordamida samarali hal etilishi mumkin.

Umumiy chidamlilikni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar davomiyligini aniqlashda mushak ishi energiya ta'minotining hosil bo'lish vaqi va yo'llarini hisobga olish zarur .

Aerob imkoniyatlarni oshirish ustida ishlash jarayonida aerob jarayonlar shiddatini takomillashtirish zarurati yuzaga keladi.

Bu jarayon kislorodni maksimal iste'mol qilish va aerob unumdorlikning yuqori ko'rsatkichlarini uzoq vaqt davomida ushlab turish qobiliyati namoyon bo'ladigan aerob jarayonlar sig'imi kattaliklari bilan ifodalanadi.

Ko'pchilik mutaxassislar laktat ostonasini insonning chidamlilikni talab etuvchi jismoniy yuklamani bajarishdagi potensial imkoniyatining ishonchli ko'rsatkichi deb hisoblaydilar. Laktat ostonasi tinch holat uchun xos bo'lgan darajalardan tashqari, ko'payib boruvchi shiddatli jismoniy yuklama paytida laktatning qondagi akkumulyasiyasining boshlanish payti sifatida belgilanadi.

Agar mushak faoliyati shiddati kichik yoki o'rta bo'lsa, laktat darajasi tinch holatdagi ko'rsatkichdan faqat birmuncha ortiq bo'ladi. Shiddatning oshishi laktatning yanada tez akkumulyasiyasiga olib keladi. (24,25,26)

Suzuvchi organizmining anaerob imkoniyatlarini oshirishda avvalam bor anaerob sharoitda ishni energiya bilan ta'minlashda ikki asosiy yo'lni takomillashtirishni nazarda tutadi:

1) muskullardagi makro erkin birikmalarni sonini oshishi hisobiga (alaktat imkoniyatlar);

2) glikolizm imkoniyatini oshirish hisobiga (laktat imkoniyatlar)

maqsadga muvofiq tashkillashtirishda trenirovka mashg'ulotlarini sezilarli darajada anaerob ishlab chiqishini darajasini oshirib beradi.

Uning ta'siri ostida muskullarda kretin fosfat va glikogenni miqdori oshib boradi, anaerob almashinuvida fermentlar aktivligi o'sadi, glikoliz shiddati aktivlashadi.

Maxsus mashqga sportchi suzuvchilarda umumiy kislorod qarzdorligi maksimal kattaligi 15-20, ba'zida undan yuqori litrlarni tashkil etishi mumkin, bu vaqtda mashqlangan odamlarda bu ko'rsatkich odatda 5-6 l dan oshmaydi.

Anaerob imkoniyatlarni oshirish uchun odatda musobaqa va musobaqa sharoitiga yaqinlashtirilgan maxsus – tayorlov mashqlaridan qo'llaniladi.

Suzuvchilarning anaerob imkoniyatlarini takomillashtirish uchun tavsiya etiladigan mashqlar tartibi quyidagilar: anaerob energiyadan xolos bo'lishda (alaklat –anaerob imkoniyatlar) ichki muskullar jarayoniga ta'sir etishga qaratilgan mashqlar.

Trenirovka mashg'ulotlari bo'laklari uzunligi 10-15m, suzib o'tish tezligi 95-100% maksimalga nisbatan. Anaerob energiyaning tashkil etilishida glikolitik tartib imkoniyatlariga ta'sir etishga qaratilgan mashqlar. Hamda yuqori kislorod qarzadorligi sharoitiga to'qimalar moslashishini yaxshilanishiga qaratilganligidir.

Bo'laklar uzunligi 25-100m, suzish tezligi 85-95 % maksimalga nisbatan. To'qimalar almashinuvining anaerob va aerob jaryoniga parallel ravishda ta'sir etishga yo'naltirilgan mashqlar masofa uzunligi 100 - 400m, suzish tezligi- 85-90 % maksimalga nisbatan.

Shunday qilib, 25 m li bo'laklarni suzib o'tishdagi dam olish oraliqlari 1,5-2 daqiqaga etadi. Ishni iloji bo'lsa seriyalar bilan, har bir seriyada 3-4 takrorlash bo'lishi lozim. Seriyalar orasidagi dam olish oralg'i 5-7 daqiqani tashkil etadi. Shunday qilib tezkorlik imkoniyatlarini takomillashtirish usuliyati bilan umumiy bog'liqligi bor ekan.

Glikoliz imkoniyatlarni oshirish uchun mashqlarni qo'llashda, zaruriyatdan kelib chiqqan holda yuqori kislorod qarzadorligi kattaligi sharoitida ishlarni bajarish zarur.

Bu kabi vazifalarni echishda dam olish oralig'larni unchalik davomiy bo'lmasligidan 25m bo'laklar orasidagi dam olish oralig'i 10-15 sek, 50 m orasidan dam olish oralig'i 10-20 sek. 100m lar orasidagi dam olish oralig'i 20- 45 sek.ni tashkil etadi.

Suzuvchini maxsus chidamliligini rivojlantirish darajasi kompleks sifatlarga bog'liq bo'ladi. Ularni rivojlantirish usuliyati ko'p hollarda spesifik xususiyatlarga egadir (10,12,23,45).

Bu birinchi galda energiyani hosil bo'lishda har xil yo'llarni imkoniyatlarni hamda ishlarni bajarishda ekonomikasini oshirishga aloqadordir.

Shuning uchun quyida alohida maxsus chidamlilikni yaxlit rivojlantirish usuliyati ko'rib chiqiladi. Umumiy chidamlilikni rivojlantirishni uzluksiz standartlashtirilgan mashqlar uslubini qo'llash bilan boshlash maqsadga muvofiq.

Mashqlarning optimal davomiyligi jismonan bo'lish tayorlangan kishilar uchun 20-30 daqiqadan tortib to yuqori darajada chidamlilik namoyon qilinadigan sport turlarida ixtisoslashuvchi malakali sportchilar uchun bir necha soatlargacha bo'ladi.

Lekin uzluksiz yuklamaning optimal davomiyligini asta- sekin oshirib borish lozim. Shuni yodda tutish zarurki, charchash yuklama davomiyligidan ko'ra ko'proq uning shiddatiga bog'liq. Shuning uchun avval uzluksiz yuklamaning zarur bo'lgan davomiyligiga erishish kerak.

Mashg'ulotlarni me'yorlangan tezkor yurishni engil yugurish bilan (ko'proq yurish bilan) birga qo'llash orqali boshlash maqsadga muvofiqdir.

Asta –sekin ko'proq yugurish qo'llaniladi (me'yorlangan yurish bilan birga) keyinchalik uzluksiz yugurish (suzish, eshkak eshish va boshqalar) optimal davomiyligigacha etkaziladi.

Yuklamaning zarur davomiyligiga erishib, uning shiddati optimal darajaga asta- sekin oshiriladi. Fiziologik nuqtai nazaridan optimal qo'zg'atuvchi –bu to'qimaning eng katta javob reaksiyasini beruvchi qo'zgatuvchining eng kichik kuchi, ya'ni eng yuksak darajada mashg'ulot samarasiga erishishga imkon beruvchi yuklamaning eng kichik shiddatidir.

Shunday qilib, 10,11,12 yoshdagi og'il bolalarda organizmning o'sishi va rivojlanishi bilan belgilar orasidagi o'zaro bog'liqlikda o'zgarishlar kuzatiladi.

Mashqlar davomida yuraq qon tomiri urushi daqiqada 130-150 zarba atrofida bo'ladi. Ish kislorod rejimi bo'yicha shiddatli turg'un sharoitlarda kechadi va samaradorlikni pasaytirmasdan bajarilishi mumkin.

Asosan past sur'atda to'liq koordinasiyali harakatlar bilan suzish qo'llaniladi. Umumiy chidamlilik quyidagi uslublar bilan rivojlantiriladi: ravon yoki masofali

uslub. Sportchi 20 daqiqa ichida bir tekis (ravon) rejimda tomir urishi daqiqada 150-160 zarba atrofida bo'ladi .

Quruqlikda 20 daqiqadan 1 soat 10 daqiqagacha davom etadigan kross yugurishi, chang'ida yugurish yoki eshkak eshish (3 soatgacha) qo'llanilganda ish shiddatiga ko'ra tomir urish tezligi daqiqada 165-180 zarbagacha oshadi.

Bunday ish rejimi umumiy chidamlilikni oshirish uchun samarali hisoblanadi. Ish davomiyligi 45-90 soniya atrofida, ya'ni 50-100m belgilanadi. Dam olish oralig'i shunday belgilanadiki, tanaffus oxirida tomir urishi daqiqada 100-120 zarbagacha pasayishi lozim.

Masofalar o'rtasida dam olish sust (masofali uslub) yoki faol (o'zgaruvchan uslub) bo'lishi mumkin . Tayorgarlik davrida umumiy chidamlilikni oshirishga katta e'tibor berishgan.

Yosh sportchilar mashg'ulotining tayorgarlik davrida past va o'rtacha shiddatli mashqlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ularning hajmi suzish yoki yugurishning umumiy hajmidan 65 % ni tashkil etishi lozim.

Bu umumiy chidamlilik va boshqa jismoniy sifatlarning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda shu orqali turli masofalarda sport natijalarining yaxshilanishiga qulay sharoit yaratib beradi.

Bu davrda uzoq masofalarga turli usullarda yugurish uchun alohida o'rin ajratiladi. Nisbatan katta bo'lmagan shiddatda uzoq ishlash umumiy chidamlilik rivojlanishini yuqori darajaga ko'taradi va keyinchalik yuqori shiddatda bajariladigan yugurishlarning og'riqsiz engil o'tishiga imkon beradi.

Yosh sportchilarning umumiy chidamliligini tarbiyalashda suzish tayorgarligi asosiy uslublarning (ravon, o'zgaruvchn, oraliqli, takroriy) salbiy nisbati muhim ahamiyaga ega.

Umumiy chidamlilikni oshirishning asosiy sharti –bu past va katta shiddatdagi ishga muvofiq keladigan rejimda mashg'ulot yuklamalarini uzoq vaqt bajarishdir. Mashg'ulot yuklamasining hajmi katta bo'lishi kerak, chunki umumiy chidamlilikning asosiy tarkibi uni uzoq vaqt saqlab turishni taqozo etadi.

Ushbu asosiy tamoyillarga muvofiq umumiy chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotda ravon va o'zgaruvchan uslublar qo'llanishi mumkin .

Chidamlilik usullar : bir tekis mashqlar. Uzluksiz mashqlar. Takror mashqlar, o'zgaruvchan mashqlar.

Bir tekis uslubli mashg'ulot deganda 1500m va undan katta masofalarga tomir urishi daqiqada 140 dan 150 zarbagacha bo'lganda uzoq davom etadigan uzluksiz suzish nazarda tutiladi (masalan, 1 marta 500m, 2-3 marta 300m).

Quruqlikda shug'ullanganda tayorgarlik davrining birinchi yarmida 20m dan 3000m gacha kross yugurishi turli shiddatdagi yuklama almashinuvini nazarda tutadi (18,19).

Bu almashinuv ritmik (yuqori shiddatdagi ishning bir xil davri bilan birga bir xil dam olish davrlarbo'lishi mumkin. Mashg'ulotda aerob imkoniyatlarni oshirish uchun oraliqli va masofali uslublar keng qo'llaniladi.

Masofalar yoki bo'laklarni suzib o'tish tekis va o'zgaruvchan rejimlarda amalga oshiriladi. Aerob imkoniyatlarni oshirish maqsadida oraliqli uslubni qo'llay turib, quyidagi tamoyillarga amal qilish zarur:

1. Ayrim bo'laklarni o'tish davomiyligi 1-2 daqiqadan oshmasligi lozim.
2. Mashg'ulot jarayni uzunligiga qarab dam olish oraliqlari davomiyligi 40-90 soniya atrofida bo'ladi.
3. Mashqlarni bajarishda ish shiddatini anglayotib yurak-tomir urishi tezligini hisobga olish lozim (daqiqada 150-160 zarba ish oxirida, 120-130 zarba faza yakunida).

Mashg'ulotda quyidagi asosiy holatlarni e'tiborga olish zarur. Ish shiddati yurak - tomir urish hajmining va kislorod iste'mol qilish darajasini yuqori o'lchamini t'minlashi lozim.

10 daqiqadan 1,5 soatgacha bo'lgan ish bunday sharoitlarga javob beradi. Suzishda bu 800 dan 1500 m uzunlikdagi masofa bo'lib, u tomir urishi daqiqada 145-175 zarba atrofida bosib o'tiladi.

Ushbu uslublardan tashqari, aerob xususiyatdagi ish chidamlilikni rivojlantirish uchun o'zgaruvchan tezlikdagi masofali yugurish keng qo'llaniladi (40,52,83).

Bunda nisbatan yuqori va nisbatan past tezlikda yugurish o'tiladigan bo'laklarning almashinuvi "shiddatli" bo'lak oxirida yurak qisqarish tezligini 140 zarbagacha oshirishni talab etadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, ko'pchilik mualliflarning fikriga ko'ra, umumiy chidamlilikni bir tekis va oraliqli uslublar yordamida rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydilar.

Biroq mazkur uslublarning makrosiklda qay tarzda uyg'unlashishiga befarq qarab bo'lmaydi. Ularning quyidagicha uyg'unlashuvi samarali hisoblanadi, ya'ni bunda turli uslublar doirasida bajariladigan mashqlar nisbati o'lchanadi: avval (tayorgarlik davrining birinchi qismida) ishning umumiy hajmi bir tekis (ravon) suzish asosida, keyinchalik esa tayorgarlik davrining oxirida va musobaqa davrining boshida oraliqli uslubda bajariladi.

Bunday nisbat aerob imkoniyatlarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi, boshqa sifatlar va qobiliyatlarni rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mashg'ulot jarayonida quyidagi asosiy uslublar: tekis, o'zgaruvchan, oraliqli, takroriy, musobaqa uslublari qo'llaniladi.

Ular bir-biridan masofasining uzunligi, yugurish shiddati, suzib o'tiladigan masofalar soni va dam olish xususiyatiga qarab ajralib turadi.

Yuklama o'lchamlari o'zgartirilganda mashg'ulot asosan tezlik, umumiy chidamlilik yoki maxsus chidamlilikni tarbiyalashga qaratilgan yo'nalishga ega bo'ladi. 8 x 25 m bo'laklar seriyalarda butun kuch bilan deyarli to'liq tiklangunga qadar suzish tezligini tarbiyalashga, 1500 – 3000 m. ga kichik tezlikda bir tekis suzish – umumiy chidamlilikni rivojlantirishga, 6 x 200 m ni maksimal tezlikdan 85-90 % shiddatda 1,5-2 daqiqada dam olish bilan suzish – maxsus chidamlilikni tarbiyalashga qaratilgan (15,18).

Tekis mashg'ulot uslubi 400 m dan 1500 m gacha va undan katta masofalada bir tekis tezlikda suzishni nazarda tutadi. Bunday suzish organizm hamma tizimlarining hamohang ishlashiga yordam beradi va suzuvchining suvda tejamkorlik bilan harakat qilishiga, shuningdek, ishlayotgan mushaklarning zo'riqishi va ushlashini almashib turishga o'rgatadi, tomir urishi 10 soniya ichida

20-25 zarba atrofida bo'ladi.

Masofa uzunligi tayorgarlik darajasiga bog'liq. Masalan, III va II razryadli sportchilar 800 - 1500 m gacha, yuqori malakali suzuvchilar undan ortiq suzadilar.

O'zgaruvchan uslub turli shiddatdagi yuklamalarning almashib turishidan iborat. Sportchi yuqori tezlikda masofa bo'lagini (masalan, 500m) yugurib o'tib, ancha past tezlikda davom ettiradi.

Yuqori tezlikda va hotirjam yugurib o'tiladigan bo'laklar uzunligi nisbati sportchi tayorgarligiga bog'liq.

Yuqori shiddat bilan suzrib o'tiladigan bo'laklardagi o'rtacha tezlikda ushbu uslub umumiy chidamlilikni oshirishga, ancha tez – maxsus chidamlilikni tarbiyalashga yordam beradi. Oraliqli mashg'ulotda ikkita yo'nalish ajratiladi – umumiy va maxsus chidamlilikni rivojlantirish.

Hordiq uchun tanafuslar – navbatdagi ish organizmdagi ijobiy o'zgarishlar asosida oshishi uchun. Kam hajmli ish bilan to'ldiriladi.

Takrorlashlar soni shug'ullanuvchilarning turg'un holatini saqlab tura olish imkoniyati bilan aniqlanadi.

Shunday qilib, yuqorida bayon qilinganlarga xulosa tariqasida aytish mumkinki, umumiy chidamlilikni tarbiyalash uchun sport mashg'ulotining kompleks uslublaridan foydalanish hamda chidamlilikni rivojlantirish maqsadida shug'ullanuvchilar yoshi va tayorgarlik darajasiga muvofiq holda yugurish va suzish vositalarini tanlash zarur (19,20,41,42,43,44,45,46,47).

1.2. Chidamlilik turlari.

Amaliyotda juda ko'p chidamlilik shakllarining namoyon bo'lishi ikki turga ajratiladi: umumiy va maxsus.

Umumiy chidamlilik - insonning odatiy bo'lmagan faoliyatni uzoq va muvaffaqiyatli bajara olish qobiliyati.

Maxsus chidamlilik - faoliyatning ma'lum turi talablari bilan belgilanadigan sharoitlarda ishni samarali bajara olish va charchoqqa bardosh berish qobiliyati.

Maxsus jismoniy tayorgarlik suzuvchilarning mazkur turini bajarish uchun nima talab etilishga qarab, sportchi organizmining hamma funksional imkoniyatlarini, hamma organlar va sistemalarini yuqori darajada rivojlantirishga qaratilgan (18,33,38).

Huddi shu jismoniy fazilatlarda suzuvchilarning butun organizmidagi organlar va sistemalar ish qobiliyatiga asoslanib, uning harakat qilish imkoniyati aks etadi.

Chidamlilikni rivojlantirish katta nagruzkalarga hissiga bardosh berishga tayor turishni tarbiyalash bilan olib boriladi. Suzuvchilar mashg'ulotda o'zmi – ko'pmi charshoqni xis qilsa, ulardan chidamlilik o'rtib boradi.

Bu esa tashki tomondan chidamlilikning o'rtib borishda namoyon bo'ladi. Moslashuv o'zgarishlarning miqdori va qay maqsadga qaratilganligi, trenirovka nagruzkalari natijasiga organizmdagi javob reaksiyasi harakteri darajasi bilan belgilanadi.

Umumiy chidamlilik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, shunga qarab yurak – qon tomiroari nafas va boshqa funksional tizimlar imkoniyati ham o'rtadi va ular aerob imkoniyatlar darajasini ta'minlab beradi, bu esa o'z navbatida hohlagan sport turlarida sport faoliyatini muvaffaqiyatli takomillashtirishga imkoniyat yaratadi.

Ma'lumki, faoliyatning u yoki bu turi kuch, tezlik va muvofiqlashlayoqatlarining namoyon bo'lishiga, demak chidamlilikka ham yuqori talablar qo'yishi mumkin va, nihoyat, faoliyatning bog'liq holda chidamlilikning bu turlarini namoyon bo'lishi mushak ishlarining energiya ta'minoti bilan bog'liq.

Chidamlilikning namoyon bo'lishini faoliyatning xususiyatlari, talablari va uning shiddatliligi asosida to'la ifodalash mumkin.

Shundan kelib chiqqan holda chidamlilikning quyidagi asosiy shakllarini ko'rsatish mumkin .

Muvofiqlash chidamliligi hali yetarlicha o'rganilmaganligi tufayli tezlik va kuch chidamliligini rivojlantirish uslubiyatini ochish bilan chegaralanamiz.

Suzushilarning chidamliligini talab qiluvshi hamda ob'ektiv metrik olchovlar bilan baholanadigan o'rta va uzoq masofaga suzish, yurak – qon tomir va nafas olish tizimlari, organizmdagi modda almashinuv jarayoning holatiga oid ko'rsatqichlar qo'llanadi.

